# Matematika fani o’qituvchilari malakasini oshirishning yangi namunaviy o’quv dasturi ishlab chiqildi

So’nggi yillarni Davlatimiz rahbari tomonidan matematika fanini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O’zR FA Matematika instituti hamda A.Avloniy nomidagi malaka oshirish instituti o’rtasida o’zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.

Unga ko’ra, tomonlar o’quv dasturlari, o’quv qo’llanmalari va boshqa ta’limga oid materiallarni ishlab chiqish, ta’lim jarayoniga o’qitishning zamonaviy innovatsion shakl va usullarini tatbiq etishda, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirishda yaqindan hamkorlik qilishi belgilangan.